

---

**Tuman hokimi “Sohibkor mahalla fuqarolar” yig‘inida sayyor qabul o‘tkazdi**  
**Qo‘shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari, 2019-yil 15-iyun kuni “Sohibkor mahalla fuqarolar” yig‘inida sayyor qabul o‘tkazdi.**

*Qabulda tuman Xalq qabulxonasi mudiri R.Abdullayev, tuman hokimi o‘rinbosarlari hamda tashkilot rahbarlari qatnashdi.*

Qabulda jami 11 nafar fuqarolar qatnashib, ular tomonidan 11 ta murojaatlar bildirildi. Qabul davomida tuman hokimi I.Novikovga fuqarolar murojaatlarini o‘z vaqtida qonuniy hal bo‘layotganligi hamda joylarda sayyor qabullar tashkillab, o‘tkazayotganligi uchun o‘z minnatdorchiliklarini bildirib o‘tdilar.

Qabuldagi murojaatlar yuzasidan tuman hokimi I.Novikov o‘rinbosarlariga va tashkilot rahbarlariga tegishli chora tadbirlarni belgilab, muddatli topshiriqlarni berdi.









2019-06-15 12:44:08